

Date: 19th April-2026

O‘QISH DARSLARIDA HIKOYA MATNI ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI
O‘STIRISH

Sattorova Xumora

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘qish darslarida hikoya matnlari orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirishning dolzarb masalalari keng yoritilgan. Unda hikoya matnlarining boshlang‘ich ta‘lim tizimidagi o‘rni, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, fikrni izchil, aniq va ravon bayon etish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda hikoya matnlarining roli asoslab berilgan. Maqolada hikoya matnlari bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirish, ularning muloqot madaniyatini shakllantirish hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, o‘qish darslarini samarali tashkil etish zarurligi ta‘kidlangan.

Kalit so‘zlar: metod, talaffuz, innovatsiya, matn, sintez, maqol, ongli o‘qish, ifodali o‘qish, hikoya matn, nutqiy ko‘nikma, yod olish, birikma, mustaqil fikrlash, mantiqiy bayon, tez o‘qish, o‘qish malakalari.

Kirish. Zamonaviy ta‘lim tizimida o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki nutq – bu shaxsning fikrini ifodalash, boshqalar bilan muloqot qilish va atrof-muhitni anglashning asosiy vositasidir. Boshlang‘ich sinflarda shakllangan nutqiy ko‘nikmalar keyingi ta‘lim bosqichlarida ham o‘quvchilarning muvaffaqiyatli o‘qishi va ijtimoiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, aynan boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish zarur. O‘qish darslari esa ushbu vazifani amalga oshirishda keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan asosiy fanlardan biri sanaladi. O‘qish jarayonida o‘quvchilar turli janrdagi matnlar bilan tanishadi, ularning mazmunini anglaydi, voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushunadi va o‘z fikrini bayon etishga o‘rganadi. Ayniqsa, hikoya matnlari o‘zining sodda, tushunarli va qiziqarli mazmuni bilan o‘quvchilarni jalb etadi hamda ularning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Hikoya matnlari orqali o‘quvchilar yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradi, ularning ma‘nosini tushunadi hamda nutqida qo‘llashga harakat qiladi. Bundan tashqari, hikoyalar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, voqealarni tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish kabi fikrlash jarayonlarini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida ularning nutqining boy, mazmunli va ravon bo‘lishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta‘lim jarayoniga qo‘yilayotgan talablar ham o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, erkin va asosli nutq so‘zlay olishini taqozo etadi. Shunday ekan, o‘qish darslarida hikoya matnlaridan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish dolzarb



Date: 19th April-2026

masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu masala atroflicha yoritilib, hikoya matnlarining nutq rivojiga ta'siri tahlil qilinadi.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l – yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, xususiyy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutugi asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, oqilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, katta e'tibor berilgan. Shuning uchun, hozir maktablarda o'qish izohli o'qish olib borilyapti. O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar hayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati: ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Sinfda o'qish darslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'qish malakasini takomillashtirish. O'quvchilarda yaxshi, to'g'ri o'qish sifatlari: to'g'ri tez, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.
2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga o'rgatish, ya'ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonalarini yetishtirish.
3. O'quvchilarni tevarak – atrof, borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning nutqini va tafakkurini o'stirish.
6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish ¹.

Bu vazifalarni bajarishning aniq yo'li, yaxshi o'qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yo'llaridir. Yaxshi o'qish malakalarining sifatlariga to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kiradi va ular o'qish darslarida o'zaro bog'liq holda takomillashtiriladi, bu to'rt o'qish sifati bir – biri bilan uzviy bog'liq. Ongli o'qish yaxshi o'qish malakalarining asosiysi hisoblanadi, chunki o'quvchi tez qisqa – o'qiganini anglamasa, bunday o'qish talabga javob bermaydi, o'qiganinitushunmaslikka olib keladi. To'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi. Tez, to'g'ri, ongli o'qish ifodali o'qishning asosi hisoblanadi. Yaxshi o'qish sifatlarini egallash maktabda barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning sharti hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'g'ri talaffuz bilan matn ma'nosini puxta sintez qilishda qiynaladilar. O'qish

¹ Oripov B. T. Darslarning samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent: 1983- yil.60-b.



Date: 19th April-2026

ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asar ustida ishlashni o'qitish bilan birga amalga oshirish zarur. O'qish jarayonida xatolar turli sabablarga ko'ra chiqadi:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta talaffuz qilishga harakat qiladi. va ma'nosini e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'zlar ko'p bo'ginli (murakkab bo'g'in tuzilishidagi so'zlarni o'qishda), ya'ni sozning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadilar.

3. To'g'ri o'qish yorug'likka, matn shriftiga, bolaning ko'ruv sezgisiga ham bog'liq.²

To'g'ri o'qishni ta'minlash uchun o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Matnni o'qishdan oldin undagi o'qilishi qiyin, tuzilishi murakkab so'zlarni, birikma va gaplarni aniqlashi, ular ustida ishlash usullarini belgilab olishi lozim.

2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlashi.

3. Matnning yaxsh, orta, yomon o'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladigan qismini oldindan belgilab chiqishi.

4. O'qituvchi yoki sinf o'quvchilarining nazorati ostida o'qishni doimiy mashq qildirishi.³

Avvalo, o'qituvchi ifodali o'qish namunasini ko'rsatishi zarur. Ifodalilik ko'rgazmalilik demakdir. O'qish darslari o'quvchilar fikrini va nutqini o'stirish, hamda o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlar bilan boshqa o'quv predmetlari orasida alohida o'rin tutadi. O'qish darslari jarayonida o'quvchilarning o'qish malakalari takomillashib, to'g'ri, ongli va ifodali o'qish, badiiy asar g'oyasini tushunish qobiliyatlari o'sib boradi. "O'qish kitobi"dagi turli janrlarga xos bo'lgan badiiy asarlarni o'qish va ular ustida ishlash orqali o'quvchilarning borliq, voqelik haqidagi tasavvur – tushunchalari kengayadi.

1-sinfda o'quvchilar ongli, turli va bir me'yorda bo'g'inlab o'qish malakasini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlarining talaffuzidagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi. O'quvchilar o'qigan matnlarning mazmunini o'qituvchining yordamchi savollari asosida hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib, so'zlab berishga o'rganib boradilar.

2-sinfda o'quvchilarda so'zni butunicha o'qish malakalari shakllanadi va ongli, to'g'ri, ifodali o'qishga intilish yaqqol seziladi. O'qish tezligi ortadi. Ayrim matnlarni ovoz chiqarmay mustaqil o'qiy boshlaydilar. O'qituvchi rahbarligida o'qilgan matndagi asosiy fikrni aniqlaydilar, undagi ayrim voqea – hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. O'qish va matnni savollar asosida hikoyalashda o'quvchilar nutqining to'g'ri va aniq bo'lishiga, nutqda so'zlardan o'rinli foydalanishlarga e'tibor beriladi.⁴

3-sinfda o'quvchilar so'zlarni butunicha o'qish malakalarini to'la egallab, ongli va ifodali o'qishga ko'proq e'tibor beradilar. O'qilgan matn mazmunini mulohaza qilish,

² A.G'ulomov, B.Qobilov. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995.120-b.

³ Shodieva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. –Toshkent: "O'qituvchi", 2002.145-b.

⁴ Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.45-b.



Date: 19th April-2026

voqealar yo'nalishini aniqlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu sinfda o'qilgan asarning badiiy – tasviriy xususiyatlari ustida ishlash davom ettiriladi.

3 – sinf o'quvchilariga o'zaro fikr olishuv jarayonida xalq maqollari va obrazli ifodalardan o'rinli foydalanish, adabiy talaffuz normalariga rioya qilishga o'rgatiladi.

4 –sinfda o'quvchilar matndagi so'zlarni butunicha ma'nosiga tushunib to'g'ri o'qish malakalarini to'la egallaydilar. O'qiganlari mazmunini qayta hikoyalsh, matnni qismlarga bo'lish va soda reja tuzish vazifalarini bajara oladilar.⁵

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, o'qish darslarida hikoya matnlari orqali o'quvchilar nutqini o'stirish muhim pedagogik ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Hikoya matnlari o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi, fikrni izchil va mantiqiy bayon etish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi. Bunday matnlar orqali o'quvchilar voqealarni tushunish, tahlil qilish va ularga o'z munosabatini bildirishni o'rganadi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, hikoya matnlari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning ijodiy yondashuvini kuchaytiradi, ularni erkin va ravon so'zlashga undaydi. O'qituvchining to'g'ri yo'naltirishi va samarali metodlardan foydalanishi esa ushbu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Umuman olganda, hikoya matnlari o'quvchilar nutqini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri bo'lib, ularni har tomonlama yetuk, fikri aniq va nutqi boy shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oripov B. T. Darslarning samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent: 1983-yil.60-b.
2. A.G'ulomov, B.Qobilov. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. – Toshkent: "O'qituvchi" 1995. 120-b.
3. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. 45-b.
4. Shojalilov A., Yusupov M. va boshqalar. To'rtinchi sinfda o'qish darslari. -Toshkent, 2017. 80-b.
5. Shodieva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. –Toshkent: "O'qituvchi", 2002. 145-b.

⁵ Shojalilov A., Yusupov M. va boshqalar. To'rtinchi sinfda o'qish darslari. - Toshkent, 2017.80-b.

